



PROSPECTS OF BUSINESS ACTIVITY AND WAYS OF THEIR DEVELOPMENT BY THE STATE

Bayisbayev Javlon Nurlanovich
Yangiyol District No. 2 Vocational School
Special Science Teacher

ANNOTATION

This article talks about the prospects of business activities and ways of their development by the state, the transition of the leading industries to new technologies in the conditions of scientific and technical development.

Keywords: institutional foundations, agriculture, technological innovations, farmers, production, private entrepreneurship, machinery products.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI VA ULARNIG DAVLAT TOMONIDAN RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Bayisbayev Javlon Nurlanovich
Yangiyo'l Tuman 2 Son Kasb-Hunar Maktabi
Maxsus Fan O'qtuvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatining istiqbollari va ularning davlat tomonidan rivojlantirish yo'llari, ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishi haqida so'z yuritiladi

KALIT SO'ZLAR: institutsional asoslar, qishloq xo'jaligi, texnologiya yangiliklarini, fermerlar, ishlab chiqarish, xususiy tadbirkorlik, mashinasozlik mahsulotlari

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Davlat statistika qo'mitasi 2021-yil 11-avgustda qabul qilingan "Rasmiy statistika to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o'z faoliyatini yuritadi. Ushbu Qonunning rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi. 2017-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan va Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funktsiyalari va tarkibini aniqlab beradigan "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom"ga muvofiq Davlat statistika qo'mitasi milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul,



shuningdek ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistika uslubiyati bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi. Rasmiy statistika to'g'risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega: - davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish; - statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o'tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish; - jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish; - davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olish; - rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish; - statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o'tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko'maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O'zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin. Bugungi kunda jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo'naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko'rsatish hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarida yaqqol ko'rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini namoyish etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bizning respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari soni va ular ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik korxonalar O'zbekistan Respublikasining «Korxonalar to'g'risida», «Mulk to'g'risida», «Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida»gi kabi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda.

ASOSIY QISM

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi sohalarini yangi texnologiyalarga o'tishda tobora o'z o'rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish



jarayonini ta'minlovchi butun tizimni asosiy bog'lovchilik sifatini o'zlarida namoyon etmoqdalar. Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste'moli mollari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat olib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari ishlab chiqargan mahsulot davlat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan sifati jihatidan qolishmasligi va hatto, ayrim hollarda ulardan yuqori turishi bilan ajralib turadi. Respublikamizdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining 60-70 foizi bevosita ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan, ular fermerlar, dehqonlar, sanoatchilar va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchilar va hokazolardir.

Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni jadal rivojlantirish asosida mulkdorlar sinfini shakllantirish, tegishli institutlar tizimini tashkil etish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyati sohasiga kredit resurslarini keng jalb qilish va xorijiy investitsiyalar olib kirish uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustda PF3305-sonli Farmoni qabul qilindi. Kichik korxonalar yirik kompaniyalarga nisbatan bozor sharoitiga tez moslashadilar hamda ishlab chiqargan mahsulotlarini bozorda muvaffaqiyatli qabul qilinishida bir qancha ustunliklarga ega. Chunki, kichik korxonalar o'z faoliyatlarini tor ishlab chiqarish dasturlariga, ilg'or texnologiyaga, kam turkumli ilm-fan talab qiladigan mahsulotlar chiqarishga tezda moslaydilar hamda bozor asoslarini tez o'rganib boradilar. Mulkchilik shakllariga ko'ra kichik korxonalarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Davlat mulkiga asoslangan kichik korxonalar.
2. Jamoa mulkiga asoslangan kichik korxonalar.
3. Fuqarolarning mulkiga asoslangan yakka tartibda ishlay-digan kichik korxonalar.
4. Ijara korxonalari.
5. Kichik qo'shma korxonalar.

Davlatimizda kichik biznes korxonalari sonining izchillik bilan ortishi, iqtisodiyotning barcha sektorlarida, jumla-dan, transport, aloqa, sog'liqni saqlash va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida ham kuzatilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham sekin-asta rivojlanmoqda. Kichik biznes korxonalarning asosiy eksporti – qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, ishlov beruvchi, elektrotexnika ishlab chiqarish mahsulotlari hamda halq amaliy san'ati buyumlaridir.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik, kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tashkil etilmoqda. Shu bilan kichik korxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati quyidagilar bilan tavsiflanadi:



- xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur tezkorlikni ta'minlab, ishlab chiqarishdagi chuqur ixtisoslashuv va tarmoqlashgan kooperastiyani yaratadi, bularsiz yuksak samaradorlikni ta'minlab bo'lmaydi;
- bozor uchun zarur bo'lgan raqobatchilik muhitini yaratadi hamda o'zgarib turadigan bozor talabiga moslab tezda ishlab chiqarish turini o'zgartirib olish qobiliyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi;
- iste'molchilik sohasida yuzaga keladigan bo'shliqni tezda to'ldirishga qodir bo'lib, eng zamonaviy mashina uskunalari va texnologiyadan foydalanib sarflangan sarmoyaning o'rnini juda tez qoplay oladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – 2017. – 23 dekabr. – № 258(6952)
2. Axrorova S. RAQAMLI MARKETINGNING RABOBOT HUQUQIDAGI TA'SIRI: YUXUMI // Pedagogik xabarchisi. Nauka va Praktyka. – 2021. – T. 1. – №. 5.
3. Drucker, Piter F. (1985). Innovatsiyalar va tadbirkorlik. "Tadbirkor" tushunchasining yaratilishi va ta'riflanishini "Siyosiy iqtisod haqida traktat" asarida Jan-Batist Sayga bog'laydi; (1834)
4. This institutional innovation concerning firm exit had an equivalent on the entry side with the introduction of the limited liability principle which is at the core of the modern corporation (Guinnane, Harris, Lamoreaux, & Rosenthal, 2007; Mueller, 2003). the core of the modern corporation (Guinnane, Harris, Lamoreaux, & Rosenthal, 2007; Mueller, 2003).